

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish

Bekmurza Gulimbetovich Dilanov
Qoraqalpoq davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari muhokama qilingan. Til bilan bog'liq ko'nikmalar - bu til o'rganuvchining til birliklari bilan analitik xarakterdagi amaliyot olib borish qobiliyati, me'yoriy ko'nikmalar esa - bu til egasining nutqiy faoliyatida tilning barcha me'yorlariga, shu jumladan to'g'ri yozish me'yorlariga ham bo'ysunish qobiliyati degan modul asosida tuzilgan.

Kalit so'zlar: ona tili, metodika, kompetensiya, kommunikativlik, darsdan tashqari mashg'ulot, og'zaki nutq

Developing students' critical and creative thinking skills in primary school native language classes

Bekmurza Gulimbetovich Dilanov
Karakalpak State University

Abstract: This article discusses issues of developing students' critical and creative thinking skills in primary school native language lessons. Language skills are the language learner's ability to practice analytically with language units, and normative skills are the language speaker's ability to obey all language norms in speech activity, including correct writing norms.

Keywords: mother tongue, methodology, competence, communicativeness, extracurricular activities, oral speech

Kirish. Ona tilini o'qitishda tanqidiy va ijodiy fikrlash - muloqot maqsadlari, sohasi va vaziyatlariga mos keladigan darajada gapira olish va haqiqiy tayyorgarlikka ega bo'lish, muloqot orqali o'zaro ta'sir ko'rsatish va o'zaro tushunishga tayyorlikdan boshlanadi. E.A.Bistrova ta'kidlaganidek, til bilan bog'liq tushunchalar va reproduktiv hamda produktiv darajalardagi kommunikativ ko'nikmalar uning qismlaridir. Bu til sharoiti yuzasidan muloqotni amalga oshirish uchun til vositalarini ongli ravishda tanlay bilish, og'zaki va yozma tilni to'g'ri tushunish va uning mazmunini ochib berish, turli janriy va stilistik xususiyatiga bog'liq shaxsiy aloqadorlikka ega fikrlarni shakllantirish qobiliyatlaridir. U "kommunikativ ko'nikmalar shakllanishi faqat

lingvistik va lisoniy kompetensiyalar bazasida amalga oshirilishi mumkin"[1] deb ta'kidlaydi.

Nutqiy qobiliyatni tilning muloqot jarayonida tushunishga asoslangan termin mazmuniga quyidagicha ta'rif berish mumkin: nutqiy qobiliyat - bu til egasining nutqiy faoliyatni amalga oshirishidir. Til bilan bog'liq ko'nikmalar - bu til o'rganuvchining til birliklari bilan analitik xarakterdagi amaliyot olib borish qobiliyati, me'yoriy ko'nikmalar esa - bu til egasining nutqiy faoliyatida tilning barcha me'yorlariga, shu jumladan to'g'ri yozish me'yorlariga ham bo'ysunish qobiliyati degan modul asosida tuzilgan.

Asosiy qism. Muloqot jarayonida berilgan axborotni qabul qilish, tushunish, talqin qilish va o'zgartirishni ta'minlaydigan fikrlash va nutq harakatlari bilan axborot berishni ta'minlaydigan fikrlash va nutq harakatlarini ajratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Nutqiy faoliyatning retseptiv turida amalga oshiriladigan fikrlash va nutqiy harakatlar yo'nalishi axborotdan uni qabul qiluvchiga, produktiv turida - muallifdan axborotga qarab bo'ladi.

Maktab o'quvchilarida tanqidiy va ijodiy tafakkurning shakllanishi yechimini kutayotgan masalalardan biri. O'quvchilarga to'g'ri suhbatlashish, fikr almashish uchun kutilmagan vaziyatlarga tayyor turish kerakligi o'rgatib boriladi. Buning uchun so'zga chechanlik va munozara olib borish bo'yicha darslar o'tish, turli fe'l-atvorli odamlar psixologiyasi xususiyatlarini bilish, mimika va qo'l harakatlarini tushunish, ma'nosini ajrata bilishga o'rgatish kerak. Tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatining shakllanishi uchun o'quvchilarga, ayniqsa, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga kompleks yondashuv zarur, chunki ularning yoshida fikrlash tarzi shakllanib, xulq-atvor tamoyillari shakllana boshlaydi.

Maktab o'quvchilarida tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmasining shakllanish jarayoni og'zaki nutq, ijtimoiy va madaniy, lisoniy, o'qish va bilish jihatlarini o'z ichiga oladi, va bu jihatlarining har biri muayyan komponentlardan iborat bo'ladi. Bular til bilish, grammatika, stilistikadan bilimga ega bo'lishi kerak. Shuningdek, bu o'z fikrini ochiq ayta olish, tinglovchilar diqqatini o'ziga jalb qila olish, javob bera olish, boshqa shaxslar bilan o'zaro muloqot, tarbiyaviylik, bag'rikenglik, odob-axloq darslari va boshqalardan iborat bo'ladi.

Tabiati bo'yicha og'zaki so'zlash monologni anglatadi. Agar ko'pchilik oldida so'zlashni psixologik nuqtai nazardan qarasak, bu faqat tinglovchilar oldidagi monolog emas, balki tinglovchilar bilan olib boriladigan murakkab jarayon bo'lib, bu bir tomonlama emas, balki ikki tomonlama jarayon, ya'ni dialog hisoblanadi. So'zlovchi bilan tinglovchilar o'rtasidagi o'zaro aloqa subyekt-subyekt munosabat xarakteriga ega. Ikki tomon ham birgalikdagi faoliyat, birgalikdagi ijodiy subyektlar hisoblanadi va har biri ushbu omma oldida nutq so'zlash kabi murakkab jarayonda muayyan rol

o'ynaydi. Og'zaki nutq uning ma'nosini anglatuvchi bir qator xususiyatlar bilan tavsiflanadi.

O'quvchilarning o'ziga yoqqan matnni ovoz chiqarib o'qishi foydalidir. Ammo o'zlarining o'qiganlarini magnitofon yoki videokameraga yozib olgan undan ham ma'qulroq, shundagina obrazli kamchiliklarini ko'ra oladi. Nutq texnikasi bo'yicha mashqlar (tez aytish) tovushlarni, so'zlarni aniq va ravshan talaffuz qilish, nutq sur'ati, intonatsiyani qayta ishlashga yordam beradi. Nutq mahoratini rivojlantirish uchun so'zga chiqqan so'zlarini boshqa o'quvchilar tahlil qilishining ham foydasi tegadi. O'quvchilarning chiqib gapirishida nima yoqdi-yu, nima salbiy his-tuyg'ular paydo qilganini o'qituvchi uchun aniq sintezlashi kerak.

O'quvchilarda qiziqish uyg'otgan tadbirlardan biri bu "Aqlli bolalar" va "Aqlli qizlar" deb nomlangan sinfdan tashqari tadbir o'tkazsak bo'ladi. Uning maqsadi kontekstga bog'liq javob sifatida to'g'ri qaror qabul qilishni aniqlashga o'rganishdan iborat. O'quvchilarning til boyligini takomillashtirish va boyitish, intonatsiya bilan aniq nutqni rivojlantirish va so'zlarning turli uslubiy bo'yoqlarini farqlashni o'rganish, kommunikativlik va o'z fikrini ifodalay olish qobiliyatini rivojlantirish zarur.

O'quvchilarning ko'pchiligi yangi ish shakllariga (avval juft bo'lib, keyin guruh bilan) ijobiy munosabat bildirishi, lekin uning mohiyatini darrov tushunib yetmasligi e'tiborga olinadi. "Grafik diktant" topshirig'ini bajarish jarayonida o'quvchilar o'rtasida janjalga yaqin holatlar tez-tez yuz berishi mumkin. Bolalar bir-birlariga, masalan: "Sen to'g'ri o'qiyapsanmi? Kel men bir ko'ray, sen doim hamma narsani adashtirasanmi?" yoki "Menda chaqmoq tugadi men qanday o'ngga qarab yuraman? Sen o'zi o'ng yoki chapni ajrata olasanmi?" kabi va h.k. savollar berilishi mumkin.

Asta-sekinlik bilan, juftlik va guruhda topshiriqlarni muntazam ravishda bajarib borish, juft bo'lib va guruh bilan amalga oshirilgan faoliyatni tahlil qilish, o'z-o'zini tahlil qilish vaqtida o'qituvchining tegishli ogohlantirish berishi orqali bolalarning bir-biriga va birgalikda o'zaro harakat qilishga munosabati o'zgarib boradi. Dastlab tashqi o'zgarishlarni ko'ra olish, keyinchalik o'quvchilar bir-biriga muloyimlik bilan (ismlarini aytib, odob bilan so'zlashuv vositalaridan foydalanib) murojaat qilishni o'rganishlari kerak. "Guruhda ishlash qoidalarini" buzilishining guvohi bo'lganimizda biz o'quvchilardan, bu holatga e'tibor qaratib, ularning hamkorlik qilayotgan o'quvchilariga to'g'ri munosabatda bo'lish kerakligini aytamiz. Keyinchalik ogohlantirish berish holati siyraklasha boshladi.

Maktabda tilning barcha jihatlarini (tovush tuzilishi, fonetikasi, leksikasi, grammatikasi, so'z yasaliishi) o'zaro bog'liq holda o'rganish ona tilini o'rgatishdagi asosiy tamoyil bo'lib, o'zaro bog'liq muhim jihatlariga ega bo'lgan hodisa sifatida tushunib olish uchun ilmiy asos yaratadi. Tilning o'ziga xos xususiyatini shunday tushunish hodisalarning rivojlanishini va o'zaro bog'liq qismlardan tuzilishini

anglashga asos bo'ladi. O'quvchilarning so'zlashuv va yozma nutqini o'stirish ona tilini o'rganish jarayonida amalga oshiriladi [2].

Tilning barcha tomonlarining bir-biriga ta'siri uning muloqot vositasi vazifasida o'z aksini topadi. Tilning asosiy birligi sifatida muloqot maqsadida so'zni to'g'ri aytish yoki yozish, shu tilda so'zlashuvchi barcha odamlarga bir xil tushunarli bo'lishi, gap grammatik jihatdan to'g'ri tuzilishi kerak [3].

Aytiladigan so'zga qo'yiladigan talablar: so'zning mazmundorligi, axborotning ochiqligi, erkin chiqib gapirish, qo'llarini mahorat bilan silkitib gapirish. Lektorning o'ziga ishonchi va emotsionalligi ham ahamiyatga ega. Yetarli darajada shiddat bilan gapirish, kerak joyda to'xtash, pauza kerak. O'rinli hazil ham zarar qilmaydi. Tinglovchilar bilan doimo yuzma-yuz muloqotda, aloqada bo'lish kerak. Yakunlovchi so'z nutq mavzusi bilan bog'liq bo'lib, ko'tarinki ruhda aytilishi kerak.

Xulosa. Shunday qilib, ona tili darslarida tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalari til haqida fan tizimini tashkil etuvchi dixotomik harakatni hosil qiladi. Ba'zi muloqot vaziyatlarida axborotni qabul qiluvchi sifatida, boshqalarida esa uni yaratuvchi sifatida ko'rsatilib, so'zlovchini neytral holatga keltiradi. Demak, o'quvchilarning nutqiy mahorati samaradorligi hamda introsub'yektiv va ekstrosub'yektiv ko'nikmalar, ya'ni, axborot oluvchining ham, muallifning ham muloqot sifatiga bevosita bog'liq bo'ladi. Tanqidiy va ijodiy fikrlash orqali bolalarning eng muhim ko'nikmasi sifatidagi tinglash va og'zaki muloqot qobiliyati ham rivojlanib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Быстрова Е.А., Львова С. И. Обучение русскому языку в школе: учеб. пособ. для студ. пед. вузов. – М.: Дрофа, 2004. – 240 с.
2. Конечкая В. П. Социология коммуникаций. М. 1997. С. 178-198.
3. Utemuratov B.Q. Baslawish klaslarda ana tilin oqitw metodlari. Nókis, Qaraqalpaqstan, 2017 jil, 55 bet.
4. Dáwletov A., Dáwletov M., Qudaybergenov M. Házirgi qaraqalpaq ádebiy tili. Morfemika. Morfonologiya. Sóz jasalıw. Morfologiya. Nókis. Bilim. 2010. 252 b.
5. Есемурат Бердимурат улы. Хэзирги қарақалпақ тили. Лексикология. - Нөкис: Билим, 1994. -184 б.